

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**  
**G'arb tillari kafedrasi**

**"TASDIQLAYMAN"**  
*Toshkent davlat sharqshunoslik*  
Univeristeti rektori  
G.Su.Rixsiyeva



2025 y.

### **LOYIHA**

## **"Inklyuziv Creative Writing (ijodiy yozuv) va Raqamli Storytelling"**

**Fan yo'naliishi:** Xorijiy til va adabiyot

**Loyiha turi:** Amaliy-innovatsion

**Loyiha rahbari:** Saidakbarova Saodat Parxadjanova, PhD, dotsent



*Loyiha bajarilayotgan tashkilot yuridik manzili:*  
Mirobod tumani, Amir Temur ko'chasi 20-uy

**Toshkent-2025**

|   |   |
|---|---|
| Loyiha nomi: Inklyuziv Creative Writing (ijodiy yozuv) va Raqamli Storytelling  | Loyiha raqami (shifri): 60110901<br>Fan yo'nalishi: Xorijiy til va adabiyot   |
| Loyiha rahbarining familiyasi, ismi, sharifi: Saidakbarova Saodat Parxonjanovna | Loyiha rahbarining telefon raqami: +998911641614<br>Elektron pochta manzili: <a href="mailto:saidat_saidakbarova@tsu.edu.uz">saodat_saidakbarova@tsu.edu.uz</a><br>STIR (INN) raqami: 202580293 |

Ijrochi tashkilotning to'liq va qisqartirilgan nomi:  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,  
G'arb tillari kafedrasи

|  | Loyihani amalga oshirish davri (yili):   | 2025-yil mart<br>2026-yil dekabr |
|--|--|----------------------------------|
| Asosiy ishtirokchilarning familiyasi, ismi, sharifi (to'liq) | 1. Abdullayeva Marhabo Rahmonkulovna<br>2. Asqarova Shaxnoza Kamoliddinovna<br>3. Mirabdullayeva Zulfiya Habibulayevna<br>4. Yakubova Shaxnoza Ikramovna<br>5. Qarshiboyeva Maftuna Faxritdinovna<br>6. Shernazarova Hayotxon Ma'rufjonovna<br>7. Artikova Lobar Sabitovna<br>8. Musoyev Anvar Abduqodirovich<br><i>(loyiha rahbari ushbu jadvalda ko'rsatilmaydi)</i> |                                  |

|  |  |                 |
|--|--|-----------------|
| Loyiha rahbarining imzosi<br> | Tashkilot rahbarining imzosi<br>G.Sh.Rixsiyeva  | Tashkilot muhri |
|--|--|-----------------|

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti G'arb tillari kafedrasi tomonidan "Inklyuziv Creative Writing (ijodiy yozuv) va Raqamli Storytelling" mavzusiga doirasida amalga oshiriladigan amaliy va innovation loyiha bo'yicha**  
**ASOSNOMA**

|   |   |   |
|---|---|---|
| <b>1. Tanlovga tavsiya etilayotgan mavzu nomi</b> |   | <b>"Inklyuziv Creative Writing (ijodiy yozuv) va Raqamli Storytelling"</b>  |
| <b>2.</b>   | <b>Ilmiy loyiha mavzusi tashabbuskorি (ilmiy tashkilot nomi)</b>  | <b>Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti</b>  |
| <b>3.</b>   | <b>Taklif etilayotgan mavzu doirasida ilgari bajarilgan/bajarilayot-gan fundamental, amaliy va innovation loyihalari natijalari tahlili</b> | <p>Butun dunyo bo'yicha raqamli hikoyachilik va ijodiy yozuv sohasida bir qator innovatsion loyihalar amalga oshirilmoqda, ular orasida yangi texnologiyalarga asoslangan va ijtimoiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlovchi tashabbuslar ko'p.</p> <p>Digital Storytelling Platforms: Bunday platformalar, masalan, Storybird va Telling Stories, yosh yozuvchilarga o'z hikoyalarni yaratish va ularni global miyosda taqdim etish imkoniyatini beradi. Bu platformalar interaktiv va vizual elementlar orqali hikoyalarni yaratish jarayonini osonlashtiradi.</p> <p>Crowdsourced Storytelling: Yangi texnologiyalar yordamida hikoyalarni bir nechta odamlar yaratishi mumkin, bu esa hikoyachilikni yanada interaktiv qiladi. Misol uchun, Wattpad platformasi foydalanuvchilarga o'z hikoyalarni yaratish, o'qish va baham ko'rish imkoniyatini beradi, bu esa ijodiy yozuvni keng auditoriyaga ommalashtiradi.</p> <p>Raqamli inklyuzivlik dasturlari: StoryCorps (AQSH) kabi dasturlar jamiyatdagi kam ta'minlangan guruhlarning hikoyalarni yig'ish va ularni keng auditoriyaga etkazishga yordam beradi. Bunday tashabbuslar har bir insonning ovozini eshittirishga imkon yaratadi. O'zbekistonda Creative writing va raqamli storytelling bo'yicha bir qator ijtimoiy, madaniy va ta'limga yo'naltirilgan loyihalar amalga oshirilmoqda. Ulardan ba'zilari yoshlarni raqamli hikoyachilikka jalb etishga, texnologiyalarni o'zlashtirishga va kreativ yozuvda o'z ifodasini topishga yordam beradi. Masalan, "Digital Storytelling for Social Change" onlayn kursi (<a href="https://fledu.uz/language/en/digital-storytelling-for-social-change-online-course/">https://fledu.uz/language/en/digital-storytelling-for-social-change-online-course/</a>) O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy o'zgarishlarga rag'batlantirish maqsadida raqamli hikoyachilikni o'rgatishga qaratilgan. Kurs raqamli vositalardan foydalanish, ijtimoiy tarmoqlarda hikoya yaratish va uni tarqatish haqida chuqur bilimlar beradi. Bu kursning asosiylari – yoshlarni o'z fikrlarini raqamli hikoyalarni orqali dunyoga tanitishga yordam berishdir.</p> <p>Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti va Creative Writing Markazi: Creative Writing Markazi (<a href="https://tsuos.uz/en/creative-writing-markazi-shanxay-universiteti-ijodkorlik-markazi/">https://tsuos.uz/en/creative-writing-markazi-shanxay-universiteti-ijodkorlik-markazi/</a>) ijodiy yozuvni rivojlantirishga qaratilgan muhim tashabbuslardan biridir. Markaz yozuvchilarga o'z asarlarini yaratishda yangi</p> |

|    |  |   |
|----|--|---|
|    |  | yondashuvlarni taklif etadi va yoshlarni ijodiy faoliyatga jalgiladi. Ushbu markazda tashkil etilgan treninglar va kurslar, yozuvchilarini zamonaviy adabiyotning yangi uslublari bilan tanishtiradi.   |
| 4. | <b>Qo'lga kiritilishi<br/>rejalashtirilayotgan yakuniy<br/>natija (mahsulot, ishlanma,<br/>texnologiya)ning tavsiisi</b> | <p>“Inklyuziv ijodiy yozish” o‘quv qo’llanmasi - turli yoshdagi va qobiliyatli o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan Creative writing bo‘yicha uslubiy qo’llanma hisoblanadi. Ushbu o‘quv qo’llanma inklyuziv pedagogika tamoyillari asosida, jumladan, nogironlar, kam ta’minlangan guruuhlar va lingvistik jihatdan xilma-xil auditoriya vakillari uchun ishlab chiqiladi.</p> <p>Creative writing va raqamli Storytelling bo‘yicha onlayn kurs – “Inklyuziv Creative writing” va “Raqamli Storytelling” metodologiyasi asosida ishlab chiqilgan video darslar, interfaol vazifalar va real loyihalarni o‘z ichiga olgan ta’lim platformasi. Mazkur kurs o‘qituvchilar, talabalar va ijodkorlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ularning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.</p> <p>Ko‘p tarmoqli seminar va treninglar – o‘qituvchilar, talabalar va yozuvchilar uchun maxsus amaliy seminar va treninglar tashkil etiladi. Ular creative writing, raqamli Storytelling, matn yaratish texnikasi va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘ladilar.</p> <p>Raqamli ijodiy to‘plam – loyiha davomida ishlab chiqilgan eng yaxshi ijodiy ishlar to‘plami (hikoyalar, insholar, maqolalar, podcastlar, audio hikoyalar) elektron formatda nashr etiladi va maxsus platformada joylashtiriladi.</p> <p>Ushbu mahsulot va ishlanmalar Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti G‘arb tillari kafedrasi tomonidan ijodiy yozish va raqamli hikoya qilish bo‘yicha innovatsion va inklyuziv ta’lim jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.</p> |
| 5. | <b>Ehtiyoj (talab)ning<br/>mavjudligi (yetarlilik)<br/>to‘g‘risida tahliliy<br/>ko‘rsatkichlar</b>                       | <ul style="list-style-type: none"> <li>I. YUNESKO va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDG-4) muvofiq, inklyuziv ta’lim jarayonlarini rivojlantirish muhim yo‘nalishlardan biridir.</li> <li>II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-maydagi PQ-5117-sun qaroriga ko‘ra, ta’lim tizimida inklyuzivlikni oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish dolzarb vazifalardandir.</li> <li>III. Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining strategik maqsadlaridan biri chet tillarini o‘qitishda zamonaviy va innovatsion yondashuvlarni joriy etishdan iborat.</li> <li>IV. Oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilida ijodiy yozuv va raqamli storytelling bo‘yicha maxsus kurslar yoki o‘quv resurslari yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan.</li> <li>V. Dunyo bo‘ylab raqamli storytelling va ijodiy yozuvni rivojlantirish uchun multimedaviy texnologiyalardan foydalanish kengaymoqda. Masalan, AQSh va Yevropa universitetlarida Digital Storytelling kurslari muvaffaqiyatli qo’llanilmoqda</li> </ul>   |

|   |  |
|---|--|
|   | <p>VI. Ushbu loyiha orqali O'zbekistonda xorijiy tillarni o'qitishda inklyuziv ijodiy yozuv va raqamli storytelling metodikasini ishlab chiqish va joriy etish ko'zda tutilgan.</p> <p>VII. Raqamli storytelling va ijodiy yozuv bo'yicha mahalliy va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga hissa qo'shiladi.</p>   |
| 6. <b>Yaratiladigan yangi ishlanchma (mahsulot, texnologiya)ning xorijiy/mavjud analoglaridan qiyosiy ustunligini ko'rsatuvchi indikatorlar</b> | <p>I. Xorijiy analoglardan farqli ravishda, loyihamiz O'zbekistonning madaniy va lingvistik kontekstiga moslashtirilgan.</p> <p>II. O'zbek milliy an'analari, qadriyatlari, folklori va zamonaviy madaniy o'zgarishlarini aks ettiruvchi lokal kontent va topshiriqlar ishlab chiqiladi.</p> <p>III. Talabalar o'zbek va boshqa Sharq xalqlari adabiyotidan ilhomlangan holda ijodiy matnlar yaratish imkoniga ega bo'ladi.</p> <p>IV. Mahalliy va global qadriyatlarning uyg'unlashgan shaklini aks ettiruvchi o'ziga xos pedagogik yondashuv qo'llaniladi.</p> <p><b>Faqat ingliz tili emas, boshqa tillarda ham qo'llanilishi</b></p> <p>I. Xorijiy analoglar: Ko'pchilik xorijiy Creative Writing va Digital Storytelling kurslari faqat ingliz tilida olib boriladi (masalan, Coursera va EdX'dagi kurslar).</p> <p>II. Bizning mahsulotimiz: Faqat ingliz tili emas, balki fransuz, nemis, arab, koreys, yapon va boshqa tillarni o'rgatishda ham qo'llash mumkin bo'lган metodika ishlab chiqiladi.</p> <p>III. TDSHU talabalarining lingvistik ehtiyojlariga mos ravishda, har bir til uchun ijtimoiy-kognitiv xususiyatlar hisobga olinadi (masalan, koreys va yapon tillaridagi rasmiy-norasmiy nutq uslublari yoki arab tilidagi adabiy va mintaqaviy lajhalarining o'zaro ta'siri).</p> <p><b>Inklyuziv va moslashtirilgan yondashuv</b></p> <p>Xorijiy analoglar: G'arbiy ta'lim tizimlari tomonidan ishlab chiqilgan aksariyat Creative Writing platformalari nogironligi bor yoki imkoniyati cheklangan talabalar ehtiyojlarini yetarli darajada hisobga olmaydi.</p> <p>IV. Nogironligi bor talabalar uchun maxsus moslashtirilgan interaktiv resurslar (brauzer orqali ovozli matn kiritish, subtitrlar bilan audio va video materiallar, moslashuvchan shrift va ranglar).</p> <p>V. Psixologik jihatdan qulay o'quv muhiti yaratish – talabalar o'zining madaniyati va shaxsiy qiziqishlariga mos keladigan ijodiy usullarni tanlashi mumkin bo'ladi.</p> <p>VI. Ko'rish yoki eshitish qobiliyatida cheklovlariga ega bo'lган talabalar uchun multimodal (audio, vizual, interaktiv) materiallar ishlab chiqiladi.</p> <p><b>Mahalliy va global auditoriya uchun moslashtirilgan yondashuv</b></p> <p>VII. Xorijiy analoglar: Ko'pchilik xalqaro Creative Writing dasturlari (masalan, "Wattpad Writing Academy" yoki "FutureLearn" platformalaridagi kurslar) asosan ingliz tilida va G'arb madaniyatiga moslashgan holda tuzilgan bo'lib, O'zbekiston yoki Markaziy Osiyo madaniyati hisobga olinmagan.</p> |

|    |   |
|----|---|
|    | <p>IX. Mahalliy va global kontekst uyg'unligi: Loyiha doirasida talabalar o'z madaniyati va tarixiga asoslangan hikoyalari yozish, shuningdek, global hikoyalash formatlarini o'rGANISH imkoniga ega bo'ladilar.</p> <p>X. O'zbek adabiyoti, folklori va tarixidan foydalanish – Hikoyachilikda an'anaviy o'zbek ertaklari, maqollarli va xalq afsonalarini zamonaviy formatda qayta ishlab chiqish imkoniyati taqdim etiladi.</p> <p>XI. Xalqaro bozorga chiqish: Talabalar yaratgan raqamli hikoyalari va ijodiy ishlarni xalqaro platformalarda (masalan, YouTube, Medium, Substack yoki boshqa media kanallar) tarqatish imkoniyati yaratiladi.</p> <p>XII. Emotsional intellekt va madaniyatlararo kommunikatsiya bo'yicha maxsus modullar qo'shiladi.</p> <p>XIII. O'zbek, rus, ingliz va boshqa tillarda qiyosiy stilistika va kod-almashish (code-switching) fenomenlari o'rGANILADI, bu esa ko'p tilli talabalar uchun samarali bo'ladi.</p>   |
| 7. | <p><b>Yaratiladigan yangi ishlanma (texnologiya) asosida mahsulot/xizmat ishlab chiqarishning resurs/xom-ashyo bazasining va zarur infratuzilmaning mavjudligi</b></p> <p>Loyiha doirasida yaratiladigan texnologiya asosida mahsulot yoki xizmat ishlab chiqarishda foydalaniladigan asosiy resurslar: TDSHU tarkibidagi tajribali filologlar, lingvistlar, adabiyotshunoslar va raqamli media mutaxassislar.</p> <p>Creative Writing va Storytelling sohasida mutaxassis professor-o'qituvchilar.</p> <p>O'zbekiston va xalqaro ilmiy manbalar (Web of Science, Scopus, Google Scholar, ResearchGate kabi platformalardan foydalanish).</p> <p>Mahalliy va xalqaro ta'lim dasturlari bilan integratsiya (Creative Writing kurslari, Cambridge yoki Oxford nashrlaridan foydalanish).</p> <p>Universitetda mavjud kompyuter sinflari va zamonaviy media-studiylar.</p> <p>Internet va bulutli texnologiyalar bilan ta'minlangan raqamli platformalar.</p> <p>Ovoz va video materiallar tayyorlash uchun professional mikrofonlar, kameralar va montaj dasturlari (Adobe Premiere, Audacity, Canva, Final Cut Pro).</p> <p>Sun'iy intellekt (AI) asosida ishlaydigan tahlil va yozuv yordamchilari (Grammarly, ChatGPT, Jasper, QuillBot).</p> <p>Mahalliy madaniyat, adabiyot va folklor asosida ishlab chiqilgan milliy hikoyachilik (storytelling) bazasi.</p> <p>O'zbek yozuvchilari va shoirlarining ijodiy asarlari va ularni yangi formatlarda qayta ishlab chiqish imkoniyati.</p> <p>Universitetda mavjud kompyuterlar va grafik planshetlar.</p> <p>Video va audio yozib olish, montaj qilish uchun raqamli dasturlar (Adobe Creative Cloud, Final Cut, DaVinci Resolve, Audacity, Canva, Piktochart va boshqalar).</p> <p>Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) asosida storytelling imkoniyatlarini rivojlanтиrish.</p> <p>Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining mavjud ta'lim va tadqiqot markazlari.</p> <p>Universitet kutubxonasi va axborot-resurs markazi.</p> <p>TDSHU tarkibidagi multimedia va lingistik laboratoriylar.</p> <p>O'quv xonalari va zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlangan auditoriyalar.</p> |

|    |  |  |
|----|--|--|
|    |  | <p>TDSHU rasmiy veb-sayti va elektron ta'lim platformalari orqali ta'lim resurslarini yetkazish.</p> <p>Moodle, Google Classroom, Edmodo kabi ta'lim platformalaridan foydalanish.</p> <p>Zoom, Microsoft Teams, Google Meet kabi videoaloqa vositalari yordamida interaktiv darslarni tashkil etish.</p> <p><b>Hamkorlik infratuzilmasi</b></p> <p>Mahalliy va xalqaro universitetlar bilan hamkorlik (Norwich institute of language education, British Council, KOICA, JICA kabi tashkilotlar bilan tajriba almashish).</p> <p>Mahalliy ijodiy yozuvchilar va jurnalistlar hamjamiyati bilan hamkorlikda amaliy trening va mahorat darslari.</p>   |
| 8. | <b>Mavzu doirasida bajariladigan loyihaning moliyalashtirish hajmining asoslanganligi</b>                | <ul style="list-style-type: none"> <li>a. Creative Writing va Digital Storytelling bo'yicha maxsus kurslarni ishlab chiqish uchun mahalliy va xalqaro ekspertlar jalg qilinadi.</li> <li>b. Universitet professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan metodik qo'llanmalar va dars materiallari uchun ish haqi</li> <li>c. Ijodiy yozuv bo'yicha mahalliy adabiyotshunoslar, yozuvchilar, jurnalistlar ishtirokida seminarlar va treninglar o'tkazish.</li> </ul>  |
| 9. | <b>Taklif etilayotgan mavzuning manfaatdor tarmoq (xo'jalik boshqaruvi organi) bilan kelishilganligi</b> | <p><b>O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi:</b><br/>Loyiha O'zbekistonning oliy ta'lim tizimida innovatsion metodlarni joriy etish bo'yicha davlat strategiyasiga mos keladi. Ingliz va boshqa xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy yondashuvlarni rivojlantirishga qaratilgan.</p> <p><b>Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rahbariyati:</b><br/>Loyiha universitet doirasida amalga oshirilishi bo'yicha kafedra va fakultetlararo hamkorlik o'matilgan.</p> <p>Filologiya, tarjima, xalqaro jurnalistika va madaniyatshunoslik yo'nalishlari uchun yangi o'quv resurslari ishlab chiqiladi.</p> <p><b>O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi:</b><br/>Jurnalistlar uchun storytelling va kreativ yozuv bo'yicha treninglar o'tkazish imkoniyati ko'rib chiqilgan.</p> <p><b>O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi va Yoshlar Media Markazi:</b><br/>Yoshlar orasida kreativ yozuv va storytelling san'atini targ'ib qilish bo'yicha hamkorlik masalalari muhokama qilingan.</p> |

G'arb tillari kafedrasi mudiri:

S.P.Saidakbarova

Fakultet dekani:

A.A.Vaxidov

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorekтор:

D.B.Sayfullayev

TDSHU rektori:

G.Sh.Rixsiyeva



«\_\_\_» 202\_\_\_ y.

**Loyiha a'zolari**

| <b>T/r</b> | <b>F.I.Sh</b>                        | <b>Lavozim</b>          | <b>Vazifasi</b>   |
|------------|--------------------------------------|-------------------------|---|
| 1          | Saidakbarova Saodat Parxadjanovna    | Kafedra mudiri, dotsent | Loyiha strategiyasini belgilash va umumiy boshqaruvni amalga oshirish Loyiha faoliyatini muvofiqlashtirish va manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish<br>Moliya va resurslarni taqsimlash  |
| 2          | Asqarova Shaxnoza Kamoliddinovna     | Katta o'qituvchi        | Loyiha doirasida tadqiqot olib borish va natijalarini tahlil qilish<br>Ma'ruba va seminar materiallarini ishlab chiqish<br>Talabalar va o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar tayyorlash   |
| 3          | Abdullayeva Marhabo Rahmonkulovna    | v.b. dotsent            | Loyiha ilmiy asoslarini shakllantirish O'quv materiallarini tayyorlash va metodologiyani ishlab chiqish<br>Yozma ijod va raqamli storytelling bo'yicha ilg'or tajribalarni tadqiq qilish  |
| 4          | Mirabdullayeva Zulfiya Habibulayevna | Katta o'qituvchi        | Loyiha doirasida tadqiqot olib borish va natijalarini tahlil qilish<br>Yozma ijodiy ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha darslar olib borish<br>Ma'ruba va seminar materiallarini ishlab chiqish<br>Talabalar va o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar tayyorlash |
| 5          | Yakubova Shaxnoza Ikramovna          | Katta o'qituvchi        | Inklyuziv creative writing bo'yicha amaliy darslarni tashkil etish<br>O'quvchilarning ijodiy ishlarini baholash va tahlil qilish<br>Raqamli storytelling bo'yicha treninglar olib borish  |
| 6          | Shermazarova Hayotxon Ma'rufjonovna  | Katta o'qituvchi        | Raqamli storytelling bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni tadqiq qilish<br>O'quvchilarning ijodiy ishlarini raqamli formatga o'tkazish<br>Loyihaning onlayn platformalarda targ'ib qilinishini ta'minlash  |
| 7          | Artikova Lobar Sabitovna             | O'qituvchi              | Yozma ijodiy ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha darslar olib borish<br>O'quvchilar va talabalar bilan individual ishlash<br>Inklyuziv yozuv strategiyalarini ishlab chiqish  |
| 8          | Sobirova Go'zal Asqarovna            | O'qituvchi              | Yozma ijodiy ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha darslar olib borish<br>Loyiha natijalarini hujjatlashtirish va hisobotlarni tayyorlash<br>Tadbir va mashg'ulotlarni rejalashtirish va tahlil qilish  |

|    |  |                  |   |
|----|--|------------------|---|
|    |  |                  | Ishtirokchilarning fikr-mulohazalarini yig'ish va loyiha samaradorligini baholash   |
| 9  | Musoyev Anvar<br>Abduqodirovich          | Katta o'qituvchi | <p>Yozma ijodiy ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha darslar olib borish</p> <p>O'quvchilar va talabalar bilan individual ishlash</p> <p>Raqamli storytelling bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni tadqiq qilish</p> <p>O'quvchilarning ijodiy ishlarni raqamli formatga o'tkazish</p> <p>Loyihaning onlayn platformalarda targ'ib qilinishini ta'minlash</p> |
| 10 | Qarshiboyeva<br>Maftuna<br>Faxritdinovna | Magistrant       | <p>Loyihaviy tadqiqotlarda qatnashish va tahliliy ishlarni olib borish</p> <p>Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda yordam berish</p> <p>O'quv materiallari va resurslar bilan ta'minlashda ishtirok etish</p>   |